

JINSIY JINOYAT TUSHUNCHASI VA UNING SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI



Niyozova Salomat Saparovna

*Toshkent davlat yuridik universiteti,
yuridik fanlar doktori, professor*



Ollamov Yarash Yo'ldoshovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent*



Xasanov Shuxrat Erkinbayevich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
bosh ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Maqolada jinsiy jinoyat tushunchasi, uning shaxsga qarshi jinoyatlar tizimida tutgan o'rni ko'rib chiqilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga asosanib, jinsiy jinoyat tushunchasi ta'rifi berilgan hamda jinsiy jinoyatlar bo'yicha tegishli fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs huquqlari va erkinliklari, inson sha'ni va qadr-qimmat, axloq normalari, jinsiy daxlsizlik, axloqqa qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar, jinsiy jinoyatlar, jinsiy zo'rlik, zo'rlab nomusga tegish.

Аннотация. В статье рассматривается определения половых преступлений и их место в системе преступлений против личности. На основании Уголовного кодекса Республики Узбекистан дано определения понятий против половых преступлений, а также высказаны соответствующие мнения и соображения по этому вопросу.

Ключевые слова: права и свободы граждан, человеческое достоинство и ценности, моральные нормы, половая неприкосновенность, преступления против нравственности, преступления против личности, половые преступления, половое насилие, изнасилование.

Abstract. The article highlights the concept of sexual crimes, their place in the system of crimes against the person, defines the concept of sexual crimes based on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, and expresses relevant opinions and considerations regarding sexual crimes.

Keywords: personal rights and freedoms, human honor and dignity, moral norms, sexual inviolability, crimes against morality, crimes against the person, sexual crimes, sexual violence, rape.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida “Insonning sha’ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi” [1] belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimiz qonunlarida inson shaxsi va uning huquqlari har tomonlama muhofaza qilinadi. Mazkur qonunlardan ko‘zlangan maqsad insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlashdan iborat. Bu borada, ayniqsa, jinoyat oid qonunlarning ahamiyati g‘oyatda katta. Haqiqatan ham, jinoyatga oid qonunlar inson va fuqarolarning eng asosiy – fundamental huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun xizmat qiladi.

Ayni vaqtda, jinoyat qonuni bilan taqiqlangan va jazoga sazovor bo‘lgan har qanday qilmish jamiyatda qabul qilingan axloq normalariga ham zid ekanligi o‘z-o‘zidan ayon. Shaxsning jinsiy daxlsizligiga qilinadigan ijtimoiy xavfli tajovuzlarga qarshi kurash davlat hamda jinoyat huquqi oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shaxs erkinliklari hamda huquqlari jinoyat qonunining normalari va boshqa huquqiy normalar bilan ham qo‘riqlanadi. Prof. M.X. Rustambayev qayd etganidek, “qo‘riqlovchi normalar tizimida jinoyat qonunlari alohida, o‘ziga xos o‘rin egallab, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ularni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash yo‘li bilan muhofaza qiladi” [2].

Shaxs huquqlari va erkinliklarining muhofaza qilinishini ta’minlashda 1994-yilda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur kodeksning “Shaxsga qarshi jinoyatlar” bo‘limida hayotga, sog‘liqqa, jinsiy erkinlikka, insonning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi qilingan tajovuzlar uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Qonunlarimizda ayolning sha’ni va qadr-qimmatini alohida muhofaza qilinadi. Zero, bunday muhofaza jamiyat madaniyati darajasining mezonidir. Ayol, albatta, nafaqat jinoyat qonuni bilan, balki ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash, muomala madaniyatini shakllantirish, jinsiy tarbiya yo‘li bilan ham himoyalaniadi, zotan, bu omillar jinsiy jinoyatlar, ayniqsa, nomusga tegish jinoyatlariga qarshi kurashda alohida o‘ringa ega.

1993-yilning dekabrda BMT Bosh Assambleyasi “Ayollarga qarshi qaratilgan zo‘ravonlikni tugatish haqida”gi deklaratsiyani e’lon qildi. 1994-yil iyunda esa Inson huquqlari bo‘yicha komissiya ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha maxsus bo‘lim tuzgan bo‘lib, mazkur bo‘lim faoliyatining yo‘nalishlariga ayollarga nisbatan zo‘rlik ishlatish faktlari, uning sabablari va oqibatlarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash ham kiritildi.

Jamiyatda shaxs huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda shaxsning jinsiy erkinligi va daxlsizligini jinoyat qonuni bilan muhofaza qilish masalasi katta muammo hisoblanadi. Jinsiy jinoyatlar orasida nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib, g‘ayritabiiy usulda qondirish kabi qilmishlar keng tarqalgan bo‘lib, ular o‘ta xavfli hisoblanadi.

Jinsiy jinoyat shaxsga qarshi qaratilgan eng og‘ir jinoyatlar sirasiga kirishi sababli jinoyat qonunida ularga nisbatan og‘irroq jazo nazarda tutilganiga qaramay, nomusga tegish jinoyatlari umumiy jinoyatchilikning salmoqli miqdorini tashkil etib kelmoqda. Bundan tashqari, ular o‘ta xavfli va nihoyatda murakkab bo‘lib, jamiyatga katta ziyon yetkazadi. Nazarimizda, bir qancha vaqt davomida jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda jinsiy jinoyatlarni tadqiq etish masalasiga yetarli e’tibor berilmay keldi.

Faqat so‘nggi yillarga kelib, mazkur jinoyatlar maxsus tadqiqot mavzusiga aylandi. Biroq “jinsiy jinoyat” tushunchasi, uning turlari va ayrim tarkiblariga aloqador bir qator masalalar haligacha batafsil yoritilmagan hamda bugungi kunga kelib turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Mazkur jinoyat yuridik adabiyotlarda turli atamalar bilan ifodalanib kelinmoqda. Masalan, P.I.Lyubinskiy “jinsiy” so‘zi nomaqbul ekanligi tufayli, ularni “jinsiy sohadagi yoki jinsiy munosabatlar sohasidagi jinoyatlar”, deb atashni taklif etadi [3]. L.Frensel va G.Veberlarning fikricha, axloqqa qarshi jinoyatlar deyilganda jinsiy munosabatlar sohasidagi jinoyatlar tushuniladi, sababi ular jamiyatda odamlar o‘rtasida vujudga keldigan, mavjud bo‘lgan sog‘lom jinsiy munosabatlarga tajovuz qiladi.

A.N. Ignatov bu jinoyatlarni “axloqqa qarshi jinoyatlar” deb atab, qavs ichida “jinsiy jinoyatlar”

deb ko'rsatadi. U buni tadqiq etilayotgan jinoyatlar axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzish ekanligi, o'ta ketgan axloqsizlikning eng tuban ko'rinishi ekanligi bilan izohlaydi. "Har qanday jinoyat g'ayriaxloqiy qilmish" deb yozadi muallif, biroq jinsiy jinoyatlar, o'z tabiatiga ko'ra, g'ayriaxloqiydir. Zero, ular asosan axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq [4].

Bizningcha, jinsiy jinoyatlarni axloqqa qarshi jinoyatlar bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. "Axloq" tushunchasi "jinsiy jinoyat" tushunchasidan ancha kengroq. Har qanday jinoyat tabiatan jamiyatda hukmron bo'lgan asosiy axloq prinsiplarini buzish hisoblanadi.

Bunday fikrning noto'g'riligini o'z vaqtida I.Ya. Foyanskiy ham ta'kidlagan edi [5]. P.I. Lyublinskiy ham ko'pchilik jinoyat kodekslarida qabul qilingan jinsiy jinoyatlarning axloqqa qarshi jinoyatlar deb nomlanishi, "axloq" tushunchasining tor ma'noga ega bo'lib qolishiga va axloqiy nuqtai nazarining yuridik nuqtai nazar bilan chalkashtirib yuborilishiga sabab bo'lishini yozgan [3].

Shunisi qiziqki, ayrim davlatlarning amaldagi jinoyat kodekslarida jinsiy jinoyatlarni birlashtiruvchi maxsus atama mavjud emas. Bu jinoyat kodekslarining umumiy tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, bob ichida jinoyatlarning ayrim turlari maxsus sarlavha bilan ajratib ko'rsatilmaydi.

Tadqiq etilayotgan jinoyat oqibatida jabrlanuvchining jinsiy erkinligi buzilishini nazarda tutib, uni *"jinsiy jinoyat"* deb atash to'g'riroq bo'ladi. Buning ustiga, ushbu atama yuridik adabiyotlarda keng qo'llanib kelingan va ilmiy muomalaga singib ketgan.

P.P. Osipov jinsiy jinoyat, jinoyat qonunida ko'zda tutilgan ijtimoiy xavfli seksual xarakterdagi tajovuz bo'lib, boshqa shaxs jinsiy manfaatlarini real xavf tug'dirish yoki amalga oshirish yo'li bilan qasddan buzishda ifodalanadi hamda jabrlanuvchiga nisbatan shaxsan aybdor yoxud uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, deb ta'kidlagan.

Xususiyatlari:

- 1) jinoyatning turdosh obyekti sifatida jinsiy manfaat namoyon bo'ladi;
- 2) odatda, ushbu harakatlar seksual xarakter kasb etadi;
- 3) ushbu jinoyat qasddan sodir etiladi.

A.A. Piontkovskiy barcha jinsiy jinoyatlarni uch guruhga bo'ladi:

a) bevosita obyekti jinsiy aloqadagi shaxs jinsiy balog'at erkinligi bo'lgan jinoyatlar (nomusga tegish, ayolni jinsiy aloqaga majburlash, g'ayritabiiy usulda zo'rlik ishlatib jinsiy ehtiyojini qondirish);

b) bevosita obyekti voyaga yetmaganlarning normal jinsiy rivojlanishi bo'lgan jinoyatlar (voyaga yetmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmaganiga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish);

v) bevosita obyekti jinsiy aloqaning mavjud ijtimoiy rivojlanishi (fohishaxona saqlash, qo'shmachilik, besoqolbozlik) [6].

Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi jamiyatda shaxs huquqlarini ijtimoiy xavfli tajovuzlardan himoya qilishdek ulkan muammoning bir qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qonun chiqaruvchi jinsiy jinoyatlarni shaxsga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlar sirasiga kiritadi.

Yuqoridagilarga asosan, bizning fikrimizcha, "jinsiy jinoyat" tushunchasi ilmiy tadqiq etilishi hamda asoslab berilishi lozim.

Sh.S. Rashkovskaya "jinsiy jinoyatlar jinsiy munosabatlarga taalluqli jinoyatlar", P.I. Lyublinskiy esa "o'zining va boshqa shaxsning jinsiy hirsini qondirishga qaratilgani holda, o'zining obyektiv xususiyatiga ko'ra, jinsiy munosabatlar tartibini buzadigan jinoyatlar" [3] deb ta'riflaganlar.

Bizningcha, bu ta'rifning kamchiligi shundaki, unda aybdor sodir etayotgan harakatlarning jinsiy xususiyati va qasddan sodir etilishi alohida ko'rsatilmagan. Yu.K. Sushchenkoning yozishicha, "jinsiy jinoyat" "obyektiv jinsiy xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy xavfli harakat bo'lib, subyekt uni o'zining yoki o'zga shaxsning jinsiy ehtiyojini qondirish maqsadida sodir etadi va mazkur qilmish jamiyatda mavjud bo'lgan jinsiy munosabatlar tartibini buzadi" [7].

Ushbu ta'rif, bizningcha, jinsiy jinoyatning mohiyatini to'liqroq aks ettiradi, biroq unda ham mazkur jinoyat muayyan shaxsga (jabrlanuvchiga) nisbatan sodir etilishi ko'rsatilmagan.

Bu kamchilikni P.P. Osipov jinsiy jinoyatga bergan ta'rifida inobatga olgan. Uning fikricha, jinsiy jinoyat jinoyat qonunida nazarda tutilgan

ijtimoiy xavfli tajovuzlar bo'lib, boshqa shaxsning jinsiy manfaatlarini unga nisbatan aybdor yoki uchinchi shaxslar tomonidan obyektiv jinsiy tabiatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirishga haqiqiy imkoniyat yaratish yo'li bilan qasddan buzishida ifodalanadi[8].

Ayni vaqtda, P.P. Osipov keltirgan ta'rif jinsiy jinoyatlarni yetarlicha aniq tavsiflashga imkon beradi, deb bo'lmaydi. Mazkur ta'rifda ushbu jinoyatning obyekti va maqsadi haqidagi ma'lumotlar qamrab olinmagan. P.P. Osipov jinsiy manfaat jinsiy jinoyatning asosini tashkil etishini e'tirof etgan.

Jinsiy manfaat bir shaxsning ikkinchi shaxsga jinsiy munosabatga kirishish maqsadida intilishi bo'lib, u ikki xil bo'lishi mumkin: pozitiv (insonni jinsiy aloqaga kirishishga faol harakatlarida namoyon bo'ladi) va negativ (insonni jinsiy aloqaga kirishishga to'sqinlik qiluvchi, ushbu harakatni amalga oshirishga yo'l qo'ymaydigan va ehtiyoj sezmaydigan harakat).

"Nomusga tegish" tushunchasiga to'xtalar ekan, A.Mukajanov ushbu jinoyatning bir qator xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Nomusga tegish jinoyati jabrlanuvchisi faqat ayol kishi bo'lishi mumkin hamda uning na axloqiy qiyofasi, na jinoyatchi bilan o'zaro munosabati aybdor qilmishini nomusga tegish deb kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

2. Nomusga tegishdagi jinsiy aloqa tushunchasi faqatgina tabiiy jinsiy aloqani qamrab oladi [9].

3. Nomusga tegishning zaruriy belgisi jabrlanuvchi bilan jinsiy aloqa qilishdir. Jinsiy aloqa odamlar o'rtasida jinsiy ehtiyojni qondirish munosabati bilan vujudga keluvchi hamda jisman va ruhan muloqot natijasida amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabat [8].

Jinsiy aloqa jamiyatda mavjud umumiy munosabatlar tizimining alohida muhim bir qismini tashkil etib, o'z navbatida, quyidagi bir qator xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

1) u inson naslini davom ettirishga qaratilgan faoliyat sifatida jamiyatdagi keng qamrovli munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni sun'iy tashkillashtirish mumkin emas;

2) u individual inson jinsiy ehtiyojini qondirish vazifasini bajarib, unda obyekt yakka shaxs bo'lganligi tufayli dastlabki xususiyat kabi ommaviy emas, balki individual xarakterda bo'ladi;

3) jinsiy munosabatlar inson faoliyatining boshqa turlaridan farq qilib, tabiiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ijtimoiy emas, balki biologik qonuniyatlarga (ya'ni, inson jinsiy rivojlanishiga bog'liq) bo'ysunadi;

4) insonning o'z naslini davom ettirish va individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan munosabatlari tug'ilgandan boshlab emas, balki jinsiy rivojlanish jarayonining paydo bo'lishi va davomiyligiga bog'liq. Ushbu holatlarning jinsiy, axloqiy tayyor bo'lmaganlik tufayli amalga oshirilishi jamiyatda qabul qilingan umumiy qonuniyatlarga zid bo'ladi hamda oilalarda bolalarning normal tarbiyasi, axloqiy rivojlanishi, moddiy ta'minotiga ham jiddiy putur yetkazadi;

5) ishtirokchilar tarkibiga ko'ra, jinsiy munosabatlar geteroseksual (qarama-qarshi jins vakillar o'rtasida) va gomoseksual (bir jinsdagi shaxslar o'rtasidagi) bo'lishi mumkin. Barcha hollarda ham jinoyat subyekti doimo alohida shaxslar bo'lib, uning subyekti butunligicha jamoa yoki jamiyat bo'lishi mumkin emas;

6) gomoseksual munosabatlar o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra geteroseksualdan farq qilib, "inson naslini davom ettiruvchi munosabat" bo'lmay, faqat individual jinsiy ehtiyojni qondirishni ko'zlaydi. Ayol va erkak o'rtasida g'ayritabiiy usulda jinsiy aloqa qilish ham ijtimoiy ahamiyati bo'yicha gomoseksual munosabatlarga tenglashtiriladi (per os, per anum, inter femora va h.k.).

Jamiyatda ikki huquq sohasi inson jinsiy faoliyatini tartibga solishga daxldor bo'lib, ulardan biri oila huquqi, ikkinchisi esa jinoyat huquqidir. Biroq oila huquqi jinsiy munosabatlarni bevosita tartibga solmaydi. Bu shu bilan izohlanadiki, jinsiy ehtiyojni qondirish "obyekti" boshqa inson shaxsi bo'lganligi tufayli, qonunda konkret jinsiy aloqa subyektiga boshqa tomondan jinsiy foydalanishga oid subyektiv huquq berilsa, bir vaqtning o'zida qarshi tarafga (yoki ikkala tarafga) huquqdor taraf jinsiy ehtiyojini qondirishda obyekt sifatida qatnashish majburiyatini yuklaydi. Biroq jamiyatda insonlar huquq obyekti sifatida emas, balki uning subyekti sifatida qatnashadi.

Biz A.Mukajanovning yuqorida bildirgan nomusga tegish jinoyatining subyekti faqatgina ayol kishi bo'lishi mumkin, degan fikriga qo'shila olmaymiz. Zero, profyessor M.X. Rustambayev

to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, "nomusga tegish jinoyatining obyekti har ikki jinsdagi jabrlanuvchining jinsiy erkinligi hisoblanadi" [10].

Mantiqan jinsiy erkinlik nafaqat ayol kishiga, balki erkak jinsidagi odamlarga ham xosdir. Biz nomusga tegish jabrlanuvchisi faqat ayol kishi bo'lishi mumkin degan fikr bilan, erkak (xususan yosh bolalar, o'smirlar) jinsidagilarning jinsiy erkinligini muhofaza qilishdan tonayotgan bo'lamiz. Shu sababdan ham nomusga tegish jinoyati jabrlanuvchisi har ikki jinsdagi shaxs bo'lishi mumkin.

Nomusga tegish jinoyatining xususiyatlari haqida so'z yuritir ekanmiz, A.A. Abdrashit, T.A. Bapanov, K.S. Karbekov tomonidan bildirilgan fikrni keltirib o'tamiz. Ushbu huquqshunos olimlar tomonidan nomusga tegish jinoyatining kvalifikatsiyalovchi belgilari quyidagicha ajratib ko'rsatilgan:

ko'p hollarda guruh bo'lib, bir guruh shaxslar, uyushgan guruh tomonidan oldindan kelishib sodir etiladi;

sog'liqqa og'ir shikast yetkazish, o'ldirish, shuningdek jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarga shafqatsizlik ishlatish bilan birgalikda sodir etiladi. Bunda ruhiy zo'rlik jabrlanuvchi qarshiligini yengish vositasi bo'lib xizmat qiladi;

jabrlanuvchiga tanosil kasalligi yuqtirilishi xavfi bo'lishi mumkin. Bunda aybdor bunday xavfni jinoyat sodir etish vaqtida anglagan bo'lishi kerak;

ehtiyotsizlikdan og'ir tan jarohati yetkazilgan taqdirda qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi [11].

Jinsiy jinoyatni ta'riflashda mazkur jinoyatlarning barcha tarkiblariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar aks ettirilishi lozimligidan kelib chiqish darkor. Shunga ko'ra, bizningcha, uni quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi: *Jinsiy jinoyat – jamiyatda qaror topgan jinsiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, subyekt o'zining yoki o'zga shaxsning jinsiy ehtiyojini qondirish maqsadida jabrlanuvchining jinsiy manfaatlarini yoki bu tartib uchun odatiy (normal) bo'lgan turli jinsdagi shaxslarning o'zaro jinsiy munosabatlarini buzuvchi, jinsiy harakatlarni qasddan sodir etishda ifodalangan va jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.*

Quyida biz o'z tarkibi bo'yicha faqat jinsiy zo'rlik orqali sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarnigina ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasining

amaldagi Jinoyat kodeksiga ko'ra, jinsiy jinoyatlar jumlasiga nomusga tegish (118-modda) va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda) jinoyatlari kiradi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi, avvalo, jinsiy sohadagi bu kabi jinoyatlarning jamiyat uchun xavfi nihoyatda kattaligi bilan bog'liqdir. Zero, mazkur jinoyatlarda jinsiy ehtiyojni qondirish eng xavfli usullar bilan amalga oshiriladi, hatto, inson o'limiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan bunday jinoiy tajovuzlarning chuqur tahlili quyiroqda beriladi. Hozir esa jinsiy zo'rlikning huquqqa xilofligi va jazoga sazovorligi belgilarining ahamiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Bunda, avvalo, shu kabi jinoyatlarga qarshi samarali kurashish, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qonunni to'g'ri va adolatli qo'llash, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi amaldagi qonun hujjatlarini chuqur nazariy tahlil qilish asosida bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq masalalarni o'rganishga, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlarini o'xshash jinoyatlardan farqlashga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi.

Jinsiy zo'rlikka qarshi keskin kurashish zarurati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlarida, Bosh prokurorning buyruqlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri buyruqlarida ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, Oliy sud Plenumining qarorlarida bunday jinoiy qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan og'irroq jazo choralarini qo'llash zarurligi ko'p bora ta'kidlangan.

Zo'rlab nomusga tegish iborasi (bu iborani keng ma'noda, ya'ni nomusga tegish ma'nosida ham, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish ma'nosida ham tushunish lozim) biror kishiga nisbatan (jismoniy yoki ruhiy) zo'rlik ishlatishni anglatadi [12].

Muayyan shaxsga nisbatan majburiy ta'sir o'tkazish jismoniy zo'rlik yoki ruhiy zo'rlik (qo'rqitish, tahdid kabilar) qo'llash shakllarida ifodalanishi mumkin. Shu sababli "zo'rqlamoq" so'zi (ya'ni, bizning talqinimizdagi "jinsiy zo'rlik" iborasi) "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "birovning nomusiga

tegmoq, tajovuz qilmoq” [13], ya’ni majburiy jinsiy aloqa sifatida izohlanadi.

Shunday qilib, jinsiy zo’rlik – majburlab jinsiy aloqa qilish bo’lib, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch yoki ruhiy zo’rlik ishlatishda namoyon bo’ladi.

Zo’rlik ishlatib nomusga tegish va zo’rlik ishlatib jinsiy ehtiyojni g’ayritabiiy usulda qondirish jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar guruhidagi eng ko’p sodir etiladigan jinoyatlardir. Mazkur jinoyatlar soni ko’p vaqt davomida deyarli o’zgarmay kelmoqda.

Statistik ma’lumotlar ham jinsiy jinoyatlar ichida o’zining alohida ijtimoiy xavfi yuqoriligi bilan ajralib turadigan nomusga tegish jinoyatining respublikamizda so’nggi yillarda oshib borayotganligidan dalolat bermoqda.

O’zbekistonda 2019–2023-yillarda ro’yxatga olingan jinoyatlar soni 2,3 barobarga – 46 mingdan 104 mingtaga oshgan. 2021-yildagi keskin ko’tarilishdan so’ng bosqichma-bosqich pasayish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, yil davomida o’ta og’ir va og’ir jinoyatlar soni ortgan [14].

Masalan, A. Mukajanov “Nomusga tegish eng keng tarqalgan va shaxsga qarshi qaratilgan xavfli jinoyatlardan bo’lib, uning xavfliligi shaxsga nisbatan qo’pol zo’rlik ishlatishda ifodalanadigan ayblanuvchi shaxsining axloqiy tubanligi, ma’naviy qashshoqligida namoyon bo’ladi. Nomusga tegish chuqur g’ayriaxloqiy qilmishdir” [9], deb ta’kidlaydi.

A.F. Koni o’zining ayblovlari nutqlaridan birida jinsiy zo’rlikni “zo’rlab nomusga tegish mavjud joyda hech qanday tuyg’u bo’lmaydi, faqat ochiqdan-ochiq surbetlik, yovuz va beshafqat hissiyot hamda shahvoniy hirs mavjud bo’ladi” [18], deb ta’riflaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo’rlik ishlatib g’ayritabiiy usulda qondirish shaxsga qarshi qaratilgan eng xavfli jinoyatlardan hisoblanadi. Insonga nisbatan sodir etilgan zo’rlik unga og’ir jismoniy jarohat va ruhiy iztirob yetkazadi, ko’pincha tuzatib bo’lmaydigan og’ir oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Bu jinoyatni sodir etishda subyekt jabrlanuvchining shaxsiy va jinsiy erkinligiga tajovuz qilib, nafaqat o’z qadr-qimmatini yerga urish, balki boshqa shaxs, jabrlanuvchining qadr-qimmati, obro’si, shaxsiy daxlsizligi bilan hisoblashmay, ba’zan esa uning sog’lig’i va hayotiga xavf tug’dirib, o’zining jinsiy

ehtiyojini qondirishga intiladi. Bunday shaxsni hech qanday axloqiy qoida, hatto jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazo tahdidi ham o’zining xudbin manfaatlarini qondirish yo’lida jinoyat sodir etishdan to’xtatib qola olmaydi [19].

Amaldagi jinoyat qonuni, ya’ni O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118 va 119-moddalari dispozitsiyalarida jinsiy zo’rlik “zo’rlik ishlatib, qo’rqitib yoki jabrlanuvchining o’zligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish” sifatida ta’riflangan. Bunda zo’rlik ishlatib jinsiy aloqa qilish deganda, jabrlanuvchining irodasiga qarshi unga nisbatan zo’rlik ishlatib yoki qo’rqitib, jinsiy aloqa qilishgina emas, balki zo’rlik ishlatmasdan, biroq jabrlanuvchining o’z xohish-irodasini namoyon qilish imkoniyati yo’qligi (o’z holati)dan foydalanib, jinsiy aloqa sodir etish ham tushuniladi.

Jinoyat kodeksining yuqorida keltirilgan moddalari dispozitsiyasida berilganidek, bu jinoyatlarga jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi jinsiy aloqa qilish xosdir. Bunda jabrlanuvchining jinsiy aloqaga kirishishni istamasligi zo’rlik ishlatish, qo’rqitish yoxud jabrlanuvchining qarshilik ko’rsata olmaydigan ahvoldaligidan foydalanish yo’li bilan bartaraf qilinadi.

Nomusga tegishning jinsiy ehtiyojni zo’rlik ishlatib, g’ayritabiiy usulda qondirishdan yagona farqi shundaki, nomusga tegish (tibbiyot nuqtai nazaridan) tabiiy, odatdagi shaklda sodir etiladi, ya’ni bunda turli jinsdagi shaxslar, o’z jinsiy organlaridan foydalanib (tabiiy holatda), qo’shiladilar. Jinsiy ehtiyojni zo’rlik ishlatib, g’ayritabiiy usulda qondirishda esa bir jinsdagi shaxslar yuqorida bayon etilgan buzuvchi shakllarda o’z jinsiy ehtiyojlarini zo’rlik ishlatib g’ayritabiiy usulda qondiradilar.

Ta’kidlash joizki, umuman olganda, jinsiy ehtiyojni zo’rlik ishlatib g’ayritabiiy usulda qondirishning ijtimoiy xavflilik darajasi va sodir etilgan harakatlarning mohiyati ayolni zo’rlab nomusiga tegish bilan aynan bir xil emas. Shu fikrdan kelib chiqib, biz mazkur jinoyatlarning asosiy elementlarini jinsiy zo’rlikning quyida keltiriladigan tahliliga tayangan holda ko’rib chiqamiz.

Jinoyat sifatidagi *jinsiy zo’rlikning asosiy elementlari (qirralari)* quyidagilardir:

- a) ham ayol, ham erkak bilan jinsiy aloqa qilish;
- b) jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi yoki bu xohish-irodani mensimasdan jinsiy aloqa qilish.

Jinoyat qonunida mazkur jinoyatlarning obyektiv tomoniga xos bo'lgan belgi sifatida jinsiy zo'rlikni sodir etishning turli usullari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu zo'ravonlik usullarining o'ziga xos tomoni shundaki, ular jabrlanuvchining irodasini sindirishga qaratilgan bo'ladi.

Z. Starovich "Sud seksologiyasi" nomli kitobida faqat qurbonning roziligi bo'lmagan holda sodir etilgan nomusga tegishdagina jinsiy zo'rlik haqida so'z yuritish mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Zo'rlik ishlatib jinsiy aloqa qilishdan esa jinsiy ehtiyojni qondirish emas, balki qurbonni bo'ysundirish maqsadi ko'zlanadi [20].

"Jinsiy jinoyat" tushunchasi dunyoning aksariyat davlatlari jinoyat qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Xorijiy davlatlar hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari jinoyat qonunlarini tahlil etish nomusga tegish jinoyatiga ta'rif berishda turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 18-bobi 131-moddasiga muvofiq "Nomusga tegish jabrlanuvchi yoki boshqa shaxsga zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanib jinsiy aloqa qilish"dir.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 120-moddasida [21] ham nomusga tegishga yuqoridagi kabi ta'riflangan. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 138-moddasida nomusga tegishda zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanib jinsiy aloqa qilish [22], deb ta'rif berilgan.

Mazkur holatda zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish faqatgina jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilishi ko'rsatilgan bo'lib, zo'rlik uchinchi shaxslarga nisbatan ishlatilishi ehtimoli inobatga olinmagan (masalan, yaqin qarindoshiga nisbatan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib jabrlanuvchining nomusiga tegish).

Ispaniyaning 1995-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 8-bo'limi 1-bobi 178-moddasida nomusga tegish jinsiy agressiya deb nomlanib, unga ko'ra "boshqa shaxsning jinsiy erkinligiga zo'rlik ishlatish yoki qo'rqitish bilan tajovuz qiluvchi shaxs jinsiy agressiyada aybdor sifatida jazolanadi" [23].

1994-yil 1-martdan kuchga kirgan Fransiya Jinoyat kodeksida ham nomusga tegish jinoyati

jinsiy agressiya ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Fransiya Jinoyat kodeksining 22²-23-moddalariga ko'ra, "u yoki bu jins vakilining har qanday jinsga mansub shaxsga nisbatan zo'rlash, majburlash, tahdid qilish yoki aldash yo'li bilan har qanday jinsiy harakati nomusga tegish hisoblanadi" [24]. Fransiya Jinoyat kodeksida nomusga tegish hamda zo'rlik ishlatib jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlari alohida ajratilmagan.

Xitoy Xalq Respublikasining 1997-yil 14-martda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 4-bobida shaxsga qarshi jinoyatlar berilgan. Mazkur bobning 236-moddasiga ko'ra, "ayolga tahdid qilib, yoki zo'rlik ishlatib nomusiga tegish 3 yildan 10 yilgacha muddatda ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi" [25].

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, Xitoy Xalq Respublikasi jinoyat qonunchiligi bilan faqatgina ayol jinsiga mansub shaxslarning nomusi qo'riqlanib, erkak jinsiga mansub shaxslar qonun himoyasidan tashqarida qolmoqda.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanib, zo'rlik ishlatmasdan hamda qo'rqitmasdan jinsiy aloqa qilish masalasi ochiq qoldirilgan. Latviya Respublikasida nomusga tegish jinoyati 1998-yil 17-iyunda qabul qilingan Latviya Jinoyat kodeksining axloqqa va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni qamrab oluvchi 16-bobida yoritilgan. Ushbu bobning 159-moddasida nomusga tegishga "zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanib u bilan jinsiy aloqa qilish" [26], deb ta'rif berilgan.

Estoniya Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 4-bobi 115-moddasiga muvofiq, nomusga tegish zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanib voyaga yetgan ayol jinsidagi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishdir [27].

Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat qonunchiligida esa, jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar nomusga tegish yoki zo'rlik ishlatib jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish kabi alohida turlarga ajratilmagan. Xususan, GFR Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinsiy jinoyatlar quyidagi turlarga ajratilgan: homiylikda bo'lgan shaxslarga nisbatan jinsiy suiiste'mollik (174-§); tegishli muassasada bo'lgan mahkumlarga yoki yordamga

muhtoj kasallarga nisbatan jinsiy harakatlar (174-a§); xizmat mavqei bilan bog'liq jinsiy harakatlar (174-b§); maslahat yoki davolash xizmati bilan bog'liq jinsiy harakatlar (174-c§); bolalarga nisbatan jinsiy suiiste'mollik (176-§); bolalarga nisbatan og'ir jinsiy harakatlar (176-a§); bolalarga nisbatan o'limga sabab bo'lgan jinsiy harakatlar (176-b§); jinsiy harakatlarga: nomusga tegishga majburlash (177-§) [28].

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarining tahlilidan ayon bo'ladiki, aksariyat Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida nomusga tegish jinoyatiga o'xshash ta'riflar berilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga asoslanib, "jinsiy zo'rlikka tibbiyot nuqtai nazaridan, tabiiy yoki notabiiy shakllarda yuz beradigan, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatilishi, majbur qilinishi natijasida yoki zo'rlik ishlatmasdan, biroq jabrlanuvchining ojiz holdaligidan foydalanib, ya'ni jabrlanuvchi yuz berayotgan hodisaga o'zining haqiqiy munosabatini ifodalay olmaydigan sharoitlarda sodir etiladigan jinsiy aloqa", deb ta'rif berish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 16-b.
2. Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. – Т.: Эльдинур, 1998. – С. 10.
3. Люблинский П.И. Преступления в области половых отношений. – М., – Л.: 1985. – С. 13–15.; 21.
4. Игнатов А.Н. Ответственность за преступления против нравственности (половые преступления). – М.: "Юридическая литература", 1966. – С. 12.
5. Фойницкий И.Я. Курс уголовного права. Часть особенная. – П., 1916. – С. 133.
6. Пионтковский А.А. Преступления против личности. – М.: Юридиздат, 1938. – С. 90.
7. Суценко Ю.К. Ответственность за половые преступления. Канд. дисс. – Саратов: 1967. – С. 24.
8. Осипов П.П. Половые преступления (общее понятие, социальная сущность и система составов). Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Л., 1967. – С. 15–16.
9. Мукажанов А. Понятие и объект изнасилования // Сборник материалов научно-практической конференции. – Алматы: ТОО "Баспа", 2001. – 30–32-с.
10. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi (Maxsus qism): Darslik. – T.: "O'qituvchi", 2003. – 108-b.
11. Конспект лекций по уголовному праву Республики Казахстан (Особенная часть): Практическое пособие. – Алматы: ТОО "Издательство "Норма-К", 2004. – 14-с.
12. Словарь русского языка. 1-том. – М., 1985. – С. 649; Российская криминологическая энциклопедия. – М., 2000. – С. 218.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. – T.: Ozbekiston nashriyoti, 2020. – 167–168-b.
14. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/19/crime-stats-uzbekistan/>
15. Кони А.Ф. Обвинительная речь по делу об убийстве коллежского асессора Чихачева. Собр. соч. 1966. – С. 284.
16. Блиндер Б.А. Уголовно-правовая охрана свободы и достоинства женщины. – Т.: ТашГУ, 1971. – С. 3.
17. Старович З. Судебная сексология. – М.: Юридическая литература, 1991. – С. 86–88.
18. Уголовный кодекс Республики Казахстан. – Алматы: ЮРИСТ, 1999. – 45-с.
19. Уголовный Кодекс Республики Таджикистан. Официальный текст. – Душанбе: "Қонуният", 1998. – 258–259-б.
20. Уголовный кодекс Испании / Под ред. и с предисловием проф. Н.Ф. Кузнецовой и проф. Ф.М. Решетникова. – М.: Издательство ЗЕРЦАЛО, 1998. – 61-с.
21. Уголовный кодекс Франции / Науч. редактирование канд. юрид. наук, доц. Л.В. Голова, канд. юрид. наук, доц. Н. Е. Крыловой; перевод с французского и предисловие канд. юрид. наук, доц. Н.Е. Крыловой. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2002. – 197-с.
22. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики / Под. ред. проф. А.И. Корбоева, пер. с китайского Д.В. Вичикова. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2001. – 160-с.
23. Уголовный кодекс Латвийской Республики / Науч. ред. и вступ. статья канд. юрид. наук А.И. Лукашова и канд. юрид. наук Э.А. Саркисовой; пер. с латышского канд. юрид. наук А.И. Лукашова. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2001. – 172-с.
24. Уголовный кодекс Эстонской Республики / Науч. ред. и пер. с эстонского В.В. Запавалова; вступ. статья доцент СПбГУ Н.И. Мацнева – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2001. – 113-с.
25. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии / Науч. ред. и вступ. статья проф. Д.А. Шестакова; предисловие доктора права Г.-Г. Йешека; перевод с немецкого Н.С. Рачковой. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2003. – 325–332-с.